

**TEMURIYLAR DAVRI CHOLG`ULARI**

Andijon Davlat Universiteti

1-kurs talabasi Abduraxmonova. Maxliyo

Annotatsiya: *Buyuk sarkarda Amir Temur davrida musiqa va san'at gullab-yashnagan. Temuriylar ko'pincha ilm-fan va musiqaga e'tiborini qaratishadi. Shu davrda musiqa yanada rivojlanadi va bundan tashqari madaniy almashinuv va savdo sotiqlik ham rivojlana boradi. Amir Temurni o'zi ham musiqani sevuchi va doim qo'llab-quvvatlangan. Temuriylar saroyida musiqiy tadbirlar, bayramlar va marosimlar ko'p bo'lar edi. Saroyda musiqachilar, rassomlar, shoirlar olimlar bir joyda faoliyat ko'rsatishgan. Bu davrida musiqa rivojlanishi uchun ko'plab yangiliklar yur beradi.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, musiqa, temuriylar, saroyda, rivojlanish, san'at, davrida, Ilm-fan, diniy marosimlar, xalq,*

Kirishi:

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336-yil 9-aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz — Qashqadaryo viloyatining shaharlaridan biri) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Uning onasi Takinaxonim, otasi amir Muhammad Tarag'ay bahodir jangchi, ulamo-yu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand inson bo'lgan. Shuningdek, Amir Temurning opasi Qutlug' Turkon va singlisi Shirinbeka Temurning yana uchta: Djuki, Olim Shayx va Suyurg'atmish ismli ukalari bo'lgan. Amir Temurning yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rganib borgan. Uning yoshligi deyarli Keshda o'tgan. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Sarkarda yoshligida maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlarni o'rgangan. Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib yetishadi.



Amir Temur tabiatan og'ir bosiq va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu uchun o'smirlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni oldiga olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari Abbos Bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar to'planishib birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllantira borishgan. Uning yoshligi ko'pincha jang va harbiy yurishlarda o'tgan

Buyuk sarkarda Amir Temur davrida musiqa va san'at gullab-yashnagan. Temuriylar ko'pincha ilm-fan va musiqaga e'tiborini qaratishadi. Shu davrda musiqa yanada rivojlanadi va bundan tashqari madaniy almashinuv va savdo sotiq ham rivojlana boradi. Amir Temurni o'zi ham musiqani sevuchi va doim qo'llab-quvvatlangan. Temuriylar saroyida musiqiy tadbirlar, bayramlar va marosimlar ko'p bo'lar edi. Saroyda musiqachilar, rassomlar, shoiru olimlar bir joyda faoliyat ko'rsatishgan. Bu davrida musiqa rivojlanishi uchun ko'plab yangiliklar yur beradi. Samarqand va Buxoroda musiqiy va madaniy hayotning markazlari edi. Samarqand Temuriylar davrida ilm-fan, san'at va musiqa sohasida muhim markazga aylangan. Buxoro esa Islom dunyosining diniy va ilmiy markazlaridan biri bo'lgan va u yerda musiqa va shoirlik an'analari rivojlana boshlangan. Amir Temur davrida musiqa ko'p jihatdan diniy ta'limotlarga xizmat qilgan. O'sha davrning musiqasi klassik o'rta osiyo an'alariga asoslangan bo'lib, asosan sufi musiqasi, xalq musiqasi va saroy musiqasi bilan bog'liq edi.

Musiqa Temuriylar saroyida ko'plab boshqa san'at shakllari bilan birga rivojlana boshlagan. Misol uchun, musiqada ishlatilgan ritmlar, garmoniyalar va melodiylar ba'zan tasviriy san'at va raqslar bilan ham ishlatilgan. Saroylarda musiqachilar va raqqoslar birgalikda ishlagan, musiqiy festivallar va bayramlarda raqsga tushib musiqa ijro etishgan. Musiqa ta'limi Temuriylar davrida yuqori darajada rivojlanib borgan. Saroyda musiqachilarni o'rgatish uchun maxsus ustozlar birlashtirilgan. Musiqiy asboblari va ularning ishlatilishi bo'yicha maktablar va



qo'shimcha darslar tashkil qilingan. Ayniqsa Samarqand va Buxoroda musiqiy ta'limini yuqori darajaga ko'tarishgan. Diniy marosimlarda musiqa ham muhim rol o'ynagan. Namoz va boshqa diniy ibodatlar uchun maxsus musiqa yaratilgan. Temuriylar saroyida ilm-fan va san'atga katta e'tibor qaratilgan va bu yerda ko'plab musiqiy asarlar yaratishgan va ijro etilgan. Bu asarlar faqat saroy aholisiga emas, balki tashrif buyurgan mehmonlarga ham taqdim etilgan. Xalq orasida ham musiqaga e'tibor bo'lgan. Ko'plab qo'shiqlar va xalq musiqa asboblari mavjud bo'lib ular turli marosimlar va bayramlarda ijro etgan. Amir Temur davri va undan keyingi Temuriylar sulolasining musiqaga ta'siri katta bo'lgan. Ular o'z davrida musiqaning rivojlanishini nafaqat o'z madaniyatida, balki boshqa musulmon mamlakatlariga ham ta'sir etilgan. Temuriylar davri nafaqat siyosiy va balki madaniy rivojlanish ham juda muhim o'rinda bo'lgan. O'rta Osiyoda 14-asr boshlarida musiqa va san'atga alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Musiqiy cholg'ular ham shu davrning madaniy merosi bo'lib ham hisoblandi. Amir Temur davrida o'ziga xos musiqa cholg'ulari va asboblari mavjud bo'lib ulardan ba'zilar quyidagilar: Tanbur – O'rta Osiyo va Fors musiqasida keng tarqalgan simli cholg'u asboblardan biridir. Tanbur uzun bo'lib, asosan o'yin, jahon va diniy marosimlarda ishlatilgan. Rubob – Bu asbob, odatda, kamonli cholg'u sifatida qaraladi va Temuriylar davrida juda mashhur bo'lgan. Rubob ayniqsa, fors, tojik va turkman xalqlarining musiqasida katta ahamiyatga ega edi. Nay – Temur davrida nay o'zining ajoyib ovozi bilan musiqada keng qo'llanilgan. Bu asbob turli xil diniy va ma'rifiy marosimlarda ham ishlatilgan. Daf – Daf, ya'ni qop-qop degani (karnay) turli xalqlarda qo'llanilgan, bu asbob marosimlar, bayramlarda va nafosatli musiqalarda qo'llanilgan. Karnay – Bu uzun, shoxsimon asbob bo'lib, yirik batalyonlar va askarlarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilgan. Bu asbob turli jangovar jarayonlarda qo'llanildi kelgan. Temuriylar davrida musiqaning rivojlanishi, ilm-fan va san'atga katta e'tibor berilgan musiqiy cholg'ularning shakllanishi va ularning madaniyati o'ziga xos ahamiyatga olingan. Temuriylar asrida madaniy va musiqa sohasida ko'plab rivojlanishlar yuz berdi. Amir Temur haqiqiy san'at ixlosmandlari uning ijod namunalarini sidqidildan tinglashgan. Musiqani rivojlantirish Amir Temur saltanatidagi dunyoviy hayotning



umumiy yo‘nalishlari va uning mukammalashtirish musiqiy she’rlarni bir tizimga solinishi yaqqol ifodasini topgan. Amir Temur davri professional musiqa san’ati bir-biriga bog‘liq bo‘lib, quyidagi ikki qatlamini qamrab olgan: fanni musiqiy – musiqa san’ati (kasb-hunar sifatida) va ilmi advor – doiralar ilmi, ya’ni pardalarni, ritmik va she’riy doiralarni o‘rganish. 14-15 asrlarda shoir, sozanda, olim, hukmdor va shu kabi ma’rifatli insonlarning musiqiy bilimi darajasi tavsifi bo‘yicha bu ikki tushuncha hamisha yonma-yon bo‘lib birgalikda ishlatilgan.

14-asr oxiri 15-asr boshlarida turli pardalar va ohanglar ketma-ketligiga asoslanga 12 maqom, 6 ovoza, 24sho‘ba va ritmik usullardan iborat shaxar dunyoviy musiqa ijrochiligi qonunlari temuriylar davrida yaratilgan.

Sohibqiron Amir Temur Xitoy safariga borayotib, 1405-yil 11-fevral kuni O‘tror shahriga yetganda qattiq og‘rib qoladi va isitmasi ko‘tarila boshlaydiva 18-fevral,chorshanba kuni sha‘von oyining o‘n yettisida, namozshom va xufton orasida vafot etdi. Amir Temur Samarqandda Amir Temur maqbarasiga dafn etilgan.

Xulosa:

Temuriylar davrida musiqaga e’tibor katta b‘olgani sababli musiqa va san’at rivojlanib gullab yashnagan. Amir Temurni o‘zi ham musiqani sevuchi b‘olib saroyida ko‘p bayramlar musiqiy kechalar b‘olgan. Temuriylar davrida musiqa gullab yashnagan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) tarix. sinaps. uz
- 2) O‘zbekiston musiqiy merosi Rossiya Federatsiyasi kitobi.
- 3) Soicety.uz